



# "INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES"



Machine Learning  
Computers with the ability to learn without being explicitly programed

International Scientific Conference  
February 22-23, 2023

Deep Learning  
Machine learning  
adapting itself to new data

Section 1: Cognitology and cultural linguistics in modern linguistics.

Section 2: Literary criticism and society.

Section 3: Problems of comparative typology and translation studies, modern problems of philology.

Section 4: Integration of communicative technologies in language learning.



**THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS  
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**English Linguistics Department**

**PROCEEDINGS  
of materials for international scientific-theoretical conference on the topic**

**PRAGMA LINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION  
AND INTEGRATION OF LANGUAGE TEACHING PROCESSES**

**February 23-24, 2023**

**Bukhara 2023**

13. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. *Miasto Przyszłości*, 28, 297–302. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
14. Nargiza Sulaymonovna, Q. ., & Arjunbek Orifjonovich, O. . (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN O`RNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594–600. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1055>
15. Tolibovna, Y. Z., & Nodirovna, B. S. (2021). Phonetic figures of speech and super segmental phonetic devices. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 910-917. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=3&article=150>
16. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). POLITENESS MARKERS IN SPOKEN LANGUAGE. *Euro-Asia Conferences*, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.
17. Zarina, U., & Nozanin, G. (2022). The main features of description in “the old man and the sea” by ernest hemingway. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 66–67. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/45>
18. Ubaydullayeva Muattar O'rinnbekovna. (2022). USAGE OF DIFFERENT STYLISTIC TROPES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 223–227. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZX3QW>
19. Khayriddinkizi, K. K. (2021). Strategies of Improving Writing Skill for B1 Learners. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES*, 2, 204–207. <http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/125>

## O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARI TEJAMKORLIGIGA DOIR

*Qosimova Zebiniso Sodiq qizi  
BuxDU 1-kurs magistranti  
Ro'ziyev Yarash Bozorovich  
BuxDU f. f. d., (BuxDU)*

**Kalit so'zlar:** tejamkorlik, milliy ruhi, punktuatsiya, orfografiya, mazmun va shakl, lisoniy vosita, g'ayrilisoniy vosita, diakratik belgilar, morfemalar, aksentema va melodika.

**Annotatsiya:** Punktuatsiya muayyan til yozuv sistemasining tarkibiy qismi bo'lib uni puxta egallash va ulardan amalda o'rinnli foydalanish yozma nutq uchun muhimdir. Punktuatsiya umumxalq, umummillat, madaniy boyliklaridan

hisoblanadi va undan fan-adabiyot, nashriyot, matbuot barcha keng foydalanadi. Punktuatsiya so‘zi lotincha punktium (punkt – nuqta, belgi, shakl) so‘zidan olingan bo‘lib uch ma’noda ishlatiladi: tinish belgilari sistemasini o’rgatuvchi bo’lim, tinish belgilarining qo‘llanishi qoidalari va tinish belgilari ma’nolarida yuritiladi. Punktuatsiya tinish belgilarining qo‘llanishi haqidagi yagona qonun qoidalari yig’indisi bo‘lib tinish ishoralarining miqdori, funksiyasi, qo‘llanish sistemasi va tartibini o’rgatadi.

**Kirish.** Imlo qoidalari har tilda o‘ziga xos. Yozuvdagagi ba’zi qat’iy qoidalari hamma til uchun umumiyyidir. Shu bilan birga, imlo qoidalari qotib qolgan narsa emas, aksincha, tirik, rivojlanib boruvchi hodisadir. Til taraqqiy etib borgan sayin u bilan bog‘liq qoidalari ham o‘zgarib rivojlanib boradi.

**Asosiy qism.** Til faqatgina nutq vositasi bo‘libgina qolmay balki shu tilda gapiradigan millatning ruhini va madaniyatini ham aks etadi. Shunday qilib har bir tilning o‘ziga xos xususiyati bor va bu bevosita shu millatning ruhiyat bilan bog‘liqdir. Jumladan dunyo tillari shu kabi xussiyatiga ko‘ra bizga ma’lum turli xil til olilariga bo‘lingan. Xusan o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansubligi va tejamkorlik ushbu til qurilishining bosh xususiyati bo‘lishiga qaramay, ko‘p bora, asosan tinish belgilarining qo‘llanishida tejamkorlikka rioya etilmaganiga guvoh bo‘lamiz va bu punktuatsiya bo‘limini isloh qilishni taqozo etadi. Prof. G’. Zikrillayev ta’biri bilan aytganda tinish ishoralarini ishlatishda ona tili qurilishi, tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tejamkorlikka rioya qilmoq darkor. Bu esa tilni ruhiy-ijtimoiy hodisa deb qaralsagina mumkin bo‘ladi.

Negaki hozirgi kunda ishlatilayotgan o‘nta tinish belgisining hammasi rus tilidan olingan. Ularni “qo‘llash asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu davrga qadar bo‘lgan qo‘lyozmalarda (ular, ma’lumki, arab grafikasi bilan yozilgan) hozirgidek mazmun va shakldagi tinish belgilari qo‘llangan emas” [2,6]. Bu esa mazkur masalani nazariy jihatdan tadqiq qilib amaliy tavsiyalar berib borilishini taqozo qilar edi. Lekin “keyingi 30-35 yil ichida o‘zbek tili orfografiyasi 5 marta qayta ko‘rilib chiqilgan bo’lsa, tinish belgilarini qo‘llash qoidalari biror marta qayta ko‘rib chiqilgan emas” [2,7; 6,3]. Bu fikr 60 va 70-yillarda aytilgan. Undan keyin ham bu borada ijobjiy o‘zgarish bo‘lgan emas. Bundan mustamlakachilik tizimi davrida tinish ishoralarini o‘zbek tilining xususiyatiga moslash masalasiga deyarli e’tibor berilmaganligi ma’lum bo‘ladi. Amalda tinish ishoralari rus tilida qanday bo’lsa o‘zbek tilida ham shunday ishlatilaveradi.

Boshqacha aytganda tinish ishoralarining mezon va qonun-qoidasi rus tilidan aynan ko‘chirilib hukmron xalq tiliga taqlid qilindi. Taqlid yurtimizda olib borilgan mustamlakachilik siyosati ta’sirida istiqlolgacha davom etdi. Bitta misol keltiraylik: “*Sobir: har bir ishga tajriba ko‘zi bilan qarash kerak*”, - deydi, - dedi Karim [9,250]. Bu misolni qo‘sish ko‘chirma gap deb besh xil ishoradan bir yoki ikki marta foydalilanilgan. Muallif amaldagi qonun-qoidaga asoslanganu ona tilining xususiyatini inobatga olmagan.

Ma'lumki o'zbek adabiy tilining barcha uslubida hozirgi kunga qadar tinish ishoralarining ishlatalishiga doir amaldagi qoidalarga rioya qilinadi. Dalil tariqasida Qur'oni karimdan Mo'minun surasining 29-oyati tarjimasini olib ko'raylik: "Va: Ey Robbim, meni muborak manzilga tushirin, Sen o'zing manzilga tushiruvchilarning eng yaxshisisan, degin", dedik (8, 344). Shu o'n beshta mustaqil va yordamchi so'zdan iborat jumladan to'qqiz o'rinda tinish belgisi qo'llangan. Naml surasining 6-oyati tavsiri oltmisht oltita mustaqil, yordamchi va qisqartma so'zdan tarkib topgan. Unda oltmisht besh o'zrinda tinish belgisi qo'yilgan.

Istiqlolga erishilgach tinish ishoralariga munosabat o'zgardi. Jumladan 1996-yilda prof. K. Nazarov tinish belgilarining qo'llanishi, ma'nosini va vazifasi *milliydir* deb yozadi [5,4]. Bundan til ruhiy-ijtimoiy hodisa deb e'tirof etilganligi anglashiladi.

Nihoyat 2015-yilda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining bir guruh yetakchi olimlari (prof. Mahmudov, katta ilmiy xodimlar A. Madvaliyev, N. Mahkamov) tomonidan yangidan "O'zbek tilining asosiy qoidalari" loyihasi tayyorlanib mutaxassislar hukmiga havola qilindi. [4, 57-79]

Mazkur loyihsada quyidagi nazariy fikr diqqatni o'ziga tortadi: "Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikr munosabatlarni, psixologik va intonation holatlarni ifodalashda ham favqulodda ahamiyatga ega". Bundan lisoniy vosita va g'ayrilisoniy omillarni tejab ishlatalish kerakligi ma'lum bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki prof. Mahmudov boshqa bir tadqiqotida ham tilda xalq ruhi aks etishi haqidagi g'oyaning asoschisi olmon allomasi V. Gumbold ekanligini bayon qilib bu yondashuv bugun tilshunoslikning turli yo'nalihsidaridagi haqqoniy tadqiqotlarning chinakam tamal toshiga aylandi deb yozadi. [3,3]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek o'zbek tilida o'nta tinish belgisi qo'llanib kelinmoqda. Bu tinish ishoralari vazifasiga ko'ra quyidagi uch guruhgaga tasniflangan:

*Chegaralovchi tinish belgilar*: bular yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-uslubiy chegaralanishini ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o'rinalashuv doirasini ko'rsatadi. Bunga qo'shtirnoq, qavs (qo'sh qavs) kabi tinish belgilari kiradi.

*Ayiruvchi tinish belgilar*: bular yozma matnlarni yoki ularning qismlarini bir-biridan ajratish va muayyan qismning tugallanishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi: bunday ajratish logik-grammatik jihatdan bo'ladi. Bularga nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul kiradi.

*Murakkab vazifali tinish belgilar*: bular yozma matn qismlarini o'rni bilan ham ajratish, ham chegaralash, ba'zan ham biriktirish vazifalarini bajaradi. a) "ajratish + biriktirish" vazifasini bajaruvchilar (ikki nuqta); b) "ajratish + chegaralash +

biriktirish” vazifasini bajaruvchilar (vergul, tire); d) fikrning bo‘linishi, qisqarishni va turli emotsiyalarni bildiruvchilar (ko‘p nuqta).

“O‘zbek tili va adabiyoti” jumalida tilshunos olimlar prof. N.Mahmudov, katta ilmiy xodimlar A.Madvaliyev, N.Mahkamov tomonidan chiqarilgan “O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari”da tinish belgilari 2 turga ajratilgan holda yoritiladi: Tinish belgilarining gap oxirida qo‘llanilishi bo‘limida nuqta, so‘roq, undov va ko‘p nuqta belgilarining qo‘llanish holatlari misollar asosida izohlanadi. Tinish belgilarining gap ichida qo‘llanilishi bo‘limida esa vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo‘shtirnoq kabi belgilarning ishlatalish holatlariga to‘xtalinadi. Tadqiqotlarga tayangan holda aytish mumkinki, dastlab qo‘llangan punktuatsion belgilar so‘zлarni va jumlalarini bir-biridan ajratish, og‘zaki nutq bilan bog‘liq bo‘lgan turli aksentema va melodikalarni ifodalash uchun qo‘llangan. Ular bugungi kunda tinish belgilari yordamida yuzaga keladigan semantik va grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qilmagan.

Prof. G’. Zikrillayev esa o‘zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati tejamkorlikka izchil amal qilgan holda tinish ishoralarini tejab ishlatalishi ikki yo‘l bilan qoidalashtiradi: 1) o’nta tinish belgisidan har birining ishlatalishi ketma-ket qoida qilib beriladi; 2) muayyan mavzu doirasida qo‘llanadigan bir yoki undan ortiq tinish belgisining qoidasi bayon qilinadi.

**Xulosa.** Shunday qilib mustaqil bo‘lganimizga chorak asrdan oshgan bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilida tinish ishoralari hali ham rus tilshunosligi namunasi asosida ishlatib kelinmoqda. Bu esa o‘zbek adabiy tili tinish ishoralarining shu tilning ruhiga muvofiq isloh etishni talab qiladi. Ushbu maqolada ham punktuatsion qoidalarga amal qilishda tejamkorlikka rioya qilindi. Zero isloh avvalo har kimning o‘zidan boshlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’ani Zikrillayev “Ruh va Til”, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, Toshkent-2018
2. Jumali Shabonov, Xayrulla Hamidov “Turk tili imlo qoidasi”, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent-2010
3. Yuldashev M.M. “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” O’ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI TILLAR VA ADABIYOT KAFEDRASI, Toshkent – 2018
4. K. Nazarov “Tinish belgilari va yozma nutq”, O’zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, Toshkent-1974
5. Ro’ziyev Y.B, Nemis adabiy tilida o’zlashtirma nutq, Центр научных публикаций (buxdu uz) 22 (22).
6. Izomovich, R. Z., & Fazliddinovna, U. D. (2021, November). The Problems of Second Language Acquisition and Writing in Teaching English Language. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 229-233).